

"BOSHLANG'ICH SINFLARDA IFODALI O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH"

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 28- maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Jumayeva Qunduz Sayimovna

TAQRIZ

O'quvchining har tomonlama kamol topishida adabiyot beqiyos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari adabiyotni har tomonlama tushunib yetishlari uchun ifodali o'qish muhim o'rin tutadi. Bolalarni ifodali o'qishga o'rgatishni bog'chadan boshlash, boshlang'ich ta'limda bu jarayonni shakllantirish, kerak bo'lsa, chuqurlashtirish zarur. Ifodali o'qishning o'ziga xos jihatlari haqida ilmiy manbalar kam. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarga oid tavsiyalar ham juda oz. Ushbu metodik qo'llanma mavzusi ayni shu boshlang'ich sinflarda ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish borasidagi fikr- mulohazalar va metodlarni o'z ichiga olganligi bilan juda ahamiyatlidir. Metodik tavsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'qish darslarida qo'l keladigan bolalarni ifodali o'qishga qiziqtirib jalb etadigan maslahat va tavsiyalar berilgan bo'lib ularni dars davomida qo'llash o'zining natijasini ko'rsatishi shubhasiz.

Yurtimizda so'ngi yillarda barcha sohalarda yangilanishlar amalga oshirildi. Shu qatorda ta'lim tizimini islox qilishning yangi yo'nalishlari ishlab chiqildi. Ushbu islohatlarning yangi bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar xalqaro mezon va talablar asosida o'quvchilarga bilim berish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF5712-son farmoniga muvofiq 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishga erishish va xalq

ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilandi. Ayni paytda jahon amaliyotiga nazar tashlasak unda matnni tushunish mezonini ustuvor ekanligini ko'ramiz, ya'ni ko'p mamlakatlarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar aynan o'quvchilarning o'qish savodxonligi mezoniga asoslanadi, bu "insonning yozma matnlarni tushinishi va ular ustida fikr yuritishi o'z maqsadlariga erishish bilim va imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanish, faol ishtirok etish qobiliyati sifatida shakllanadi". Boshlang'ich sinflardagi o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishdir. Ifodali o'qish maktab sharoitida badiiy o'qish san'ati ibtidosi hisoblanib, uning metodikasi o'qish nazariyasiga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Chunki asosiy poydevor shu bosqichda egallanadi. O'qish esa ta'limning ajralmas asosi bo'lib xizmat qilishi barchaga ma'lum. Ushbu metodik tavsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali va ravon o'qishlar uchun zarur ma'lumotlar lar yoritiladi. Ifodali o'qish jarayoni ushbu klasterda aks etgan bo'lib, u mantiqiy va adabiy o'qishning natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Asarni uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va kurgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi, ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o'quvchilarga ko'rgazmali ravishda yetkazadi.

Ifodali o'qish turlari quyidagilar:

1. Yakka o'qish.
2. Rollarga bo'lib o'qish.
3. Jo'r bo'lib o'qish.
1. Yakka o'qishning yuqori bosqichi baralla o'qishdir.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a....

Kin-tuningga aylagali nur fosh,

Birsin oy angla, birisin quyosh.

(A. Navoiydan)

2. Rollarga bo'lib o'qish.

“Qish” X. Eshonqulov.

1-o'quvchi: Hovlida zag'cha,

Qanot qoqadi.

2-o'quvchi: Oppoq kiyimda,

O'rmonu tog', yer.

Hamma o'quvchi: Dag', dag', dag'....

Rollarga bo'lib o'qish uchun o'qish kitoblarida berilgan ko'p qahramonli ertag larni ham o'qisak bo'ladi.

3. Jo'r bo'lib o'qishning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilar bir xil sur'at va ohang bilan o'qishni o'rganadilar.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Intonatsiya – urg'u, temp, ritm, to'xtam, ovozning baland-pastligining yig'indisi. Bo'lar og'zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarining turli kayfiyatlari, ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Ifodali o'qishni egallashning asosiy shartlari:

1. Nafasni to'g'ri olish va to'g'ri sarflash.

2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish. Z. Adabiy talaffuz normalarini egallash.

Ifodali o'qish shartlaridan yana biri ovozning baland—pastligi, yoqimlilik, asar mazmuniga mos holda o'zgartira olishlik.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Qahramonlarning hatti-harakatini tahlil qilish, g'oyasini belgilash, badiiy vositalarning vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o'qishni ta'minlaydi.

2. Pauzaning, urg'uing o'rinni, nutq tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish.

PIRLS xalqaro tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimga ega davlatlarning 4-sinf bitiruvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnning tushinish darajasi o'rganiladi. Mazkur tadqiqotlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini kengaytirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotlar jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.

2. Mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rinishdagi berilgan ma'lumotlarni topa olish.

2. Xulosalarni shakllantirish.

3. Ma'lumotlarni umumlashtira olish.

4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholash.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishning ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi.

PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir. G.S. Kovelova, E.A. Krasnovskiy o'z tadqiqotlarida o'qish savodxonligi deganda, odamning yozma matnlarni anglash va ularda aks ettirish, o'z mazmunidan o'z maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarni rivojlantirish, jamiyatda faol ishtirok etish uchun foydalanish qobiliyatini tushunishni taklif qiladi.

Ilmiy manbalarda esa "o'qish savodxonligi" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: O'qish savodxonligi- insonning yozma matnlarni tushunishi va ulardan

foydalanishi, ular haqida fikr yuritish va maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun o'qish bilan shug'ullanish qobiliyati.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shakllangan o'qish mahorati kamida ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

-o'qish texnikasi (so'zlarni to'g'ri va tez anglash hamda talaffuz qilish);

-matnni tushunish. Bu ikkisi ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, "o'qish savodxonligi" atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, "savodli o'qish"ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi matnlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholashi, o'z fikrini bildira olishi zarur. Shunday ekan, o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish va

PIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Eng avvalo, o'quvchilarni 1-sinfdan boshlab matnni o'qish va mazmunini tushunishga o'rgatib borish kerak. Shu maqsadda amaldagi "Ona tili" va "O'qish" darsliklari birlashtirilib yangi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi joriy qilindi. Ushbu darslikda avvalgi darsliklardan farqli o'laroq o'quvchilarga tilni o'rgatishda uni lisoniy strukturasiga bo'yicha emas, balki o'quvchilarning tildan amaliyotda foydalanish darajasiga qarab bilim beriladi, ya'ni darslikda grammatikaga oid qoidalar aynan keltirilmaydi, ular o'quvchiga yodlatilmaydi, aksincha, qoidalarni darslikda berilgan matnlar asosida tuzilgan topshiriqlar orqali o'quvchilar amaliy tarzda o'rganib, o'zlashtirib boradilar. Qolaversa, matnni o'qish va uni tushunish darajasini oshirishga oid maxsus topshiriqlar ham berilgan bo'lib, bu o'qish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 3-4-sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarida kichik hikoya va ertaklardan ikki xil variantda uyga vazifa berilib, ertasi kuni uyga vazifaga ko'ra hikoya yoki ertak haqida savol –javoblar o'tkazish maqsadga muvofiq. Masalan:

Ertak yoki hikoya nima haqida? Qahramonlar kim? Siz hikoyadan nimani o'rgandingiz? Sizga qaysi qahramonlar yoqdi? Nima uchun? Ijobiy yoki salbiy

qahramonlar haqida fikringiz? kabi savollar bilan o'quvchilarni imtihon qilish mumkin yoki PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, darslikdagi, sinfdan tashqari o'qish uchun foydalaniladigan adabiyotlardagi matnlar, gazeta va jurnallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilar uchun turli topshiriqlar testlar ishlab chiqish kerak.

Shuningdek, o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda muhim bo'lgan yana bir jihat ta'lim jarayonida ijodiy muhit yaratishdir. Bunday muhitda o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalash, imkoniyatlarini turli yo'nalishlarda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar. Ta'lim jarayonida mantiqiy savol- topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Qolaversa, loyihalash, modulli ta'lim, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan innavatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tayyorlov ishlaring sifat va samaradorligini ta'minlaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, xalqaro tadqiqot topshiriqlari yetuk tajribaga ega xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. Xalqaro tadqiqot talablariga qo'yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalkashtirishi mumkin. Shuning uchun xalqaro tadqiqot sinovlariga o'quvchilarni tayyorlashda asosiy e'tiborni alohida olingan topshiriqlarni yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, avvalo o'qituvchi ifodali o'qish namunasini o'z o'quvchilariga ko'rsatish zarur. Shundagina u o'z ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. O'qituvchi O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilar nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirishi juda zarurdir. Shundagina o'quvchilar 1- sinfdan boshlab matnning ongli, to'g'ri va bo'g'inlab o'qishni o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslaridagina emas, balki barcha darslarda hamda darsdan va maktabdan

tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi xalqaro talablarga mos tarzda oshirish uchun milliy va ilg'or tajribalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ,bu jarayonda o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini ham yo'lga qo'yish, elektron tarzdagi ta'limni rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ubayxo`jayeve R.O`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish. Boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun qo`llanma. Toshkent: Ko`hinur, 2014.180 b.

2. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O`qish kitobi. Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O`zbekiston, 2016– B. 81.

3.O`zbek bolalar adabiyoti antologiyasi.Toshkent: “O`qituvchi” nashriyoti.1997 yil. 464 b.

4.G`afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O`qish kitobi. Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2018 – 176 b.

5.Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash/(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) U.N.Tashkenboyevning umumiy tahriri ostida.-T.:Sharq,2019.

6.Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o;qish savodxonligini baholash(Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar, soha mutaxassislari uchun metodikqo'llanma) –T.:Sharq, 2019.

7.Г.С.Ковалева, Э.А.Красновский.Новий взгляд на грамотность. По результатам мѣждународного исследования.PISA- 2000. М.:Логос,2004.

Internet manzillari

1. [www. google.uz](http://www.google.uz)

2. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

3. [www. uzsiense.uz](http://www.uzsiense.uz)